

## MEDIAMATNLAR – ONLAYN NASHRLAR KONTENTINI TO‘LDIRISHDA ASOSIY VOSITA SIFATIDA

*Ibrohimova Aziza Tohirovsna*

*O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti*

*Bosma OAV jurnalistikasi yo‘nalishi*

*4-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Onlayn jurnalistikada vyeb-cayt dizayni bosma ommaviy axborot vositalardan farqli o‘laroq interaktiv xususiyatga ega bo‘ladi. Ammo interaktivlik faqatgina ikki tomonlama aloqa bog‘lash maqsadini ko‘zlamaydi. Yuqorida ta’kidlanganidek, bunga asosiy sabab bosma nashrlar tezkorlik masalasida nofaol bo‘lgani hisoblanadi. Interfaol rejimda ishslash – bu auditoriya talablariga tezroq javob berish va unga ko‘ra axborot tayyorlash demakdir. Interaktiv faoliyat nashrning auditoriyasi kim, qanday toifadagi kishilar, ularning qiziqishlari nimadan iborat, qanday ma’lumotlarga ehtiyoji mavjud ekanini aniqlashda samarali vosita hisoblanadi.

**Kalit so‘zlar:** Online nashr, mediamatn, OAV, samarador kontent.

“Bugungi kunda barcha OAV tahririyatlari va davlat muassalari internetda o‘z “sahifasi”ga ega. Bu esa demokratik jarayonlarning jadallashuviga, aholining siyosiy faolligini oshishiga, davlat va jamoatchilik o‘rtasidagi munosabatlar samaradorligining oshishiga olib keladi”.<sup>1</sup>

Hozirgi kunda mamlakatimizda internet tarmog‘idagi axborotlar avvalga nisbatan ko‘p sonli kuzatuvchilarga ega. Quvonchli jihat, auditorianing yoshi jihatdan ham o‘zgarishlar katta. Avvaliga ko‘proq yoshlar kuzatuvida bo‘lgan global tarmoq hozirda katta yoshlilarning ham sevimli axborot manbasiga aylanib ulgurdi. Tarmoq rivoji ham bu natijalarning sabablaridandir.

Agarda 2015 yilda operator va provayderlar soni 854 tani tashkil etgan bo‘lsa, 2017 yil 1 yanvar holatiga ularning soni 654 taga tushdi. Xalqaro internet tarmog‘iga ularish tezligi 2015 yilda 21,26 Gb/s ni tashkil etgan bo‘lsa, 2017 yilning boshida 59,4 Gb/s ga yetdi. Uz domenidagi domenlar soni 30 ming 800 dona sifatida qayd etildi<sup>2</sup>. Dasturiy ta’midot ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi xo‘jalik sub’yektlarning soni 360 tani, elektron raqamli imzo kalitlari va sertifikatlari soni esa 1 626 096 donani, [www.uz.uz](http://www.uz.uz) da ro‘yxatdan o‘tgan saytlar soni esa 11300 tani tashkil etdi<sup>3</sup>.

Onlayn jurnalistikada so‘nggi o‘n yillikda matbuotning bosma nashrlaridan tashqari erkin faoliyatdagi yangi axborot tizimlari ham ish boshladi va bugun ular

<sup>1</sup> Косимова Н. Онлайн журналистика. Дарслик. – Т., 2019. – Б. 5.

<sup>2</sup> [http://www.ccitt.uz/uz/activities/indicators\\_industry\\_development/](http://www.ccitt.uz/uz/activities/indicators_industry_development/) 2017.01.01.

<sup>3</sup> Ўша манба.

tarmoqda ko‘p sonli auditoriyani qamrab olmoqda. Bugungi kunda [www.redpen.uz](http://www.redpen.uz), [www.ilike.uz](http://www.ilike.uz), [www.anhor.uz](http://www.anhor.uz), [www.daryo.uz](http://www.daryo.uz), [www.norma.uz](http://www.norma.uz), [www.kun.uz](http://www.kun.uz), [www.uz24.uz](http://www.uz24.uz), [info.islom.uz](http://info.islom.uz), [www.uza.uz](http://www.uza.uz), [www.12news.uz](http://www.12news.uz) saytlari O‘zbekiston OAV maydonida o‘z o‘rniga ega bo‘lib bormoqda. Shuningdek, bosma nashrlarning elektron versiyalari ham mavjud bo‘lib, ular yuqoridagi sanab o‘tilgan saytlar kabi mashhur bo‘la olmayapti.

Bu fikr tadqiqot ishi yuzasidan o‘tkazilgan so‘rovnoramiz orqali yanada oydinlashdi. So‘rovnoma 3 ta kurs bo‘yicha talabalar auditoriyasida o‘tkazilib, unda jami 114 ta ovoz jamlandi. So‘rovnomada “Sizningcha, bugungi kunda onlayn jurnalistikada qaysi sayt faol?” savolimizga [www.anhor.uz](http://www.anhor.uz), [www.daryo.uz](http://www.daryo.uz), [www.norma.uz](http://www.norma.uz), [www.kun.uz](http://www.kun.uz), [www.uza.uz](http://www.uza.uz) degan javoblar bildirildi. Bosma nashrlarning elektron versiyalariga nisbatan o‘tkazgan “Siz qaysi bosma nashrning elektron versiyasini muntazam kuzatib borasiz?” savolimizga auditorianing 10% igma javob qaytardi. Demak, unga ko‘ra, bugun bosma nashrlarning elektron versiyalaridan [www.jamiyatgzt.uz](http://www.jamiyatgzt.uz), [21asr.uz](http://21asr.uz), [huquq-gazeta.uz](http://huquq-gazeta.uz) saytlarining nomini keltirishdi, xolos! Albatta bu so‘rovnoramiz talaba yoshlarning kuzatuvi asosida olib borilgani sababli, deb baholanadi, biroq axborot ta’siriga immunitet zarur bo‘lgan qatlam ham ayni shu avlod vakillari ekanligi afsuslanarlidir.

Mazkur natijalar sabablaridan biri bu axborot mezonlaridan tezkorlikka amal qilinmaganidir. Yana biri sayt kontentidagi jalb etarli xususiyatlarning kamligidir. Shu o‘rinda savol tug‘iladi. Kontent nima?

Saytning kontenti, ya’ni mazmuni tahririyat faoliyati yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda yaratiladi. Sayt dizayni juda yorqin, shuningdek tajovuzkor va g‘ashni keltiradigan bo‘lmasligi, aksincha, u normativ standartlarga mos bo‘lishi, unda albatta davlat ramzi belgilari aks ettilishi va saytga kiruvchilarini saytdagi eng muhim narsa – axborotdan chalg‘itmasligi kerak.

Agarda saytlar kontenti bilan tanishish dinamikasini kuzatadigan bo‘lsak, [www.uz](http://www.uz) portalining xabariga ko‘ra, bir kunda daryo.uz saytiga 600 ga yaqin foydalanuvchilar kirsa, reytingning uchinchi o‘rnini egallagan Mover.uz saytiga 700 ga yaqin foydalanuvchi kirib, uning mazmuni bilan tanishar ekan.<sup>4</sup> Bu natijalarda albatta, uning kontenti, ya’ni veb-sahifani mazmun jihatdan to‘ldirilishiga ham bog‘liq. Kontent esa matn, tasvir, audio va video materiallardan tarkib topadi.

Saytning bosh sahifasi grafik qismidan, navigatsiya menyusidan va foydalanuvchi bir kirishdayoq tashkilot haqida o‘ziga zarur ma’lumotni olish, so‘nggi yangiliklar bilan tanishishi uchun zarur kontentdan iborat bo‘lishi lozim. Birinchi sahifa kontenti (mazmuni) quyidagi bo‘limlardan tashkil topadi: “Tahririyat haqida”, “Yangiliklar”,

<sup>4</sup> Косимова Н. Интернет журналистика асослари. <http://nargis.uz/?p=666>. 2017. Б.43.

“Ruknlar” (unga “Siyosat”, “Iqtisodiyot”, “Jamiyat”, “Sport” va boshqalar), “Maxsus sahifalar”, “Hujjatlar” va hokazolar kirishi mumkin.

Yuqoridagilardan anglashiladiki, saytda asosan, rasm, video va grafika bilan boyigan matnlar ifodalananadi. Mediamatn saytning asosiy qismini tashkil etar ekan, undagi har bir elementga nisbatan turli talablar belgilangan. Ulardan birinchisi, standart bir bet matn hajmi 170 kb.dan oshmasligi lozim. Shuningdek, lingvistik ta'minotga qo'yiladigan talablarga ko'ra, sayt matni o'zbek, rus va ingliz tillarida ishlaniib, uning har bir sahifasida tillardan bir-biriga o'tish imkonini bo'lishi lozim.

Onlayn jurnalistikada vyeb-cayt dizayni bosma ommaviy axborot vositalardan farqli o'laroq interaktiv xususiyatga ega bo'ladi. Ammo interaktivlik faqatgina ikki tomonlama aloqa bog'lash maqsadini ko'zlamaydi. Yuqorida ta'kidlanganidek, bunga asosiy sabab bosma nashrlar tezkorlik masalasida nofaol bo'lgani hisoblanadi. Interfaol rejimda ishslash – bu auditoriya talablariga tezroq javob berish va unga ko'ra axborot tayyorlash demakdir. Interaktiv faoliyat nashrning auditoriyasi kim, qanday toifadagi kishilar, ularning qiziqishlari nimadan iborat, qanday ma'lumotlarga ehtiyoji mavjud ekanini aniqlashda samarali vosita hisoblanadi.

Onlayn nashrlar kontentida mediamatn masalasida bir necha jihatlarga e'tibor berish talab etiladi. Albatta, birinchi navbatda sayt materialini o'qish uchun kompyuter monitoriga tikilib qarash kerak bo'ladi. Bunda qog'ozga nisbatan bir munkha sekinroq kuzatuv yuzaga keladi. Olimlar monitordan matn o'qishda qog'ozga nisbatan o'qish tezligi teng yarimga qisqarishini aniqlashgan. Ularning fikricha, byeshinchi abzasdan boshlab foydalanuvchi saytdardagi katta matnlarni o'qishda noqulaylik his qila boshlasharkan. Odamlar matnni ikki yo'l orqali, ya'ni so'zlarni birin-ketin va butun matnni skaner qilgan holda hamda internetdagi matnni foydalanuvchilar ko'z yogurtirish orqali o'qib, agar ular saytga aniq maqsadsiz kirishsa, katta matn mutlaqo o'qishmas ekan. Chunki ular maqolani o'qimay, balki biror qiziqroq axborotni qidirishar ekan.

Shuningdek, mediamatnlarni yaratishda yana axborotning dolzarbligini ham e'tiborga olish lozim.

Axborotning dolzarbliyi – bu uning ayni paytdagi ahamiyati va muhimligi bilan belgilanadi. Faqat o'z vaqtida berilgan axborot inson va umuman jamiyat uchun foydali bo'lishi mumkin. Eskirgan axborot dolzarblilagini yo'qotadi va ko'p darajada foydasiz hisoblanadi.

Axborotning foydaliligi uni fuqarolar uchun qimmatligi bilan belgilanadi. Tahririyatga murojaat qilgan har bir fuqaro o'zini qiziqtirgan savolga javob olishi kerak. Axborot xizmatlari orqali tarqatiladigan axborot aholining huquqiy ongini oshirish va axborot madaniyatini shakllantirishga xizmat qilishi lozim.

Albatta, biron xabar matnini yozar ekanmiz, uning doimiy auditoriyaga ega bo'lishini hamda kuzatuvchilar sonining oshishini hoxlaymiz. Matn tuzishda birinchi

galda uning taxminiy rejasini tuzamiz. Ryejamiz sarlavha va kichik sarlavhalar ko‘rinishida, matnni so‘zboshi orqali mazmun jihatdan kichik bloklarga ajratish kerak.

Kontentda xatboshiga alohida e’tibor qaratiladi. Har bitta xatboshiga bitta fikrni joylash to‘g‘ri. Xatboshining asosiy g‘oyasi bir-ikki gapda ifodalanadi, qolganlari ikkinchi darajali ahamiyaga ega. Ular asosiy fikrni tasdiqlash, tavsiflash va aniqlashtirishga xizmat qiladi.

Asosiy fikrni matn boshida ifodalagan ma’qul, o‘qiganda gap nimadaligi darrov ayon bo‘lsin<sup>5</sup>.

Mediamatn tayyorlashda matnning ahamiyati muhimligiga ko‘ra yana ba’zi masalalarda ham o‘ziga xos yondashuv talab etiladi. Bular sahifa uzunligi, matn kengligi hamda shrift hajmidir. Elektron tahririyat xodimlarining fikricha, yangiliklar rukniga axborot yozishda so‘zlar soni 500 dan oshmasligi kerak. Yana saytdagi Times New Roman shriftiga nisbatan Arial o‘qilishi oson hisoblanadi. Bunda sayt yaratishda shrift hajmi fiksatsiya qilinmagan bo‘lishiga e’tibor qaratish lozim. Albatta, foydalanuvchilar brauzer orqali qulay o‘qish uchun shrift hajmini o‘zgartirish imkoniga ega bo‘lishlari darkor.

Matnning bu ko‘rinishda ifodalanishi noto‘g‘ri hisoblanadi va u foydalanuvchilarni jalb eta olmaydi. (1-rasmga qarang).



## 1-rasm.

Ma’lumki, internetda foydalanuvchi materiallarni o‘qimay, balki ularga tez-tez ko‘z Yugurtiradi. Biror gapni o‘qib, bir on unga qiziqishi va uni kuzatishi mumkin. Aynan mana shunday jalb etarlik xususiyatlar sarlavha, tagsarlavha, link, matndagi

<sup>5</sup> Қосимова Н., Бобоҷонова Г., Исламова Л. Аҳборот хизмати: жамоатчилик билан самарали мулокот. Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Тараккиёт дастури (БМТД), -Т: 2012 й. 90 б.

fotosurat orqali namoyon bo'ladi. Foydalanuvchiga to'liq axborot berilgan, qisqa muddatda o'qilishi mumkin bo'lgan matnni tavsiya etish kerak. Shuning uchun har bir matnni kichik xatboshilarga bo'lib, har bir abzas tugallangan fikrga ega bo'lishi ham muhim.

Onlayn nashrlar matnlarida yana bir xususiyat grammatik va uslubiy xatoliklarga ahamiyat berishlikdir. G'aliz tushunchalar yoki ko'p xatolik mavjud axborot ham foydalanuvchini sahifadan tezda ketishiga sabab bo'ladi. Bu unga nisbatan hurmatsizlikni ham bildiradi.

Kontentda agar juda ko'p elementlar berilsa, bu ham saytga kiruvchilarni o'zidan itaradi. Qisqaroq matn, albatta, surat va video hamohangligida bo'lsa, yanada ko'p kuzatuvchilarni hosil qiladi. Saytda bu havolalar orqali ham ifodalanadi. Havola saytda zarur axborotni topishga yordam beradi. Biroq muhim axborot qidirushi jarayonida havolaga kerakli va asosiy ma'lumotlar joylashtirilgani ma'qul. Shuningdek, maqola matnnini yuklab olishga ham qulaylik yaratilishi kerak. Ayrim saytlarda yuklab olish ham ko'p bosqichli bo'lgani bois foydalanuvchi boshqa matnga ehtiyoj sezib sizning nashringizni tark etadi.

*Web-matn qisqa, aniq, badiiy, maqolaning asosiy mazmunini to'liq o'zida aks etishi lozim.<sup>6</sup>*

Mediamatnda matn qismidan tashqari fotosurat va video yohud grafikaga nisbatan ham talablar mavjud. Fotosurat – jurnalistikaning asosiy yo'nalishlaridan biri bo'lib, asosan tasvir orqali bayon qilish, vogelikni xronologik tarzda aks ettirish bilan ifodalanadi. Saytdagi fotosuratda ob'yektiv yondashuv muhim o'rinn tutadi. Chunki bu suratlar sodir bo'lgan biror aniq hodisani o'zida aks ettiradi. Saytda fotosurat matn mazmunini to'ldiradi. U ko'proq axborot berish uchun qo'llaniladi. Fotosurat ko'proq jonli va e'tiborni o'ziga tortadigan bo'lishi kerak. Bu borada portret fotolardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lib, u yig'ilishdagi ma'ruzachining xarakterini ochib berishi kerak. Fotosuratlarni ko'proq berish axborotning o'qishli bo'lishini ta'minlaydi.

Bugungi kunda matnning video bilan hamohangligi o'ta muhimdir. Chunki bu axborotni yanada ishonchli bo'lishini taminlaydi. Harakatli tasvir har bir yoshni qiziqtiradi va jalb etadi. Shuning uchun undan bugun eng faol deb topilgan veb saytlar keng foydalanishadi. Masalan, "kun.uz" onlayn gazetasida videofayllar joylashuvi quyidagicha: (2-rasmga qarang)

<sup>6</sup> Қосимова Н. Интернет журналистика асослари. <http://nargis.uz/?p=666>. 2017. Б.51.



2-rasm.

Hozirda mamlakatimizdagi eng faol onlayn nashrlardan biri hisoblangan [www.kun.uz](http://www.kun.uz) sahifasi o‘zining faoliyati bilan xorijiy manbalardan qolishmayotgani ma’lum. U axborot manbasi texnik sozlanishi, ma’lumotlarning tezkorlik, aniqlik va asosli dalillar bilan boyligi hamda mediaviy unsurlarning barchasidan unumli va o‘rinli foydalangan holda ma’lumotlar taqdim etilishi bilan aholi e’tiboridagi muhim yangiliklar bazasiga aylangan. (3-rasmga qarang)



3-rasm.

Sayt o‘z oldiga O‘zbekiston va jahonda ro‘y berayotgan eng muhim voqeahodisalar haqida tezkor, aniq va xolis axborot berishni maqsad qilib qo‘ygan. Google Analytics ma’lumotlariga ko‘ra, saytga har kuni 350 ming kishi tashrif buyuradi. Saytdan foydalanish mutlaqo bepul bo‘lib, faqatgina internet traffik sarflanadi. Saytning yengil va tez ishlaydigan mobil versiyasi – [m.kun.uz](https://m.kun.uz). [Facebook](#), [Twitter](#), [Instagram](#), [Odnoklassniki](#) ijtimoiy tarmoqlarida sahifalar, Telegram messenjerida esa [@KunUzOfficial](#) nomli kanal faoliyat yuritadi. Android va iOS qurilmalari uchun mo‘ljallangan mobil dasturlari ham mavjud. Ularni Google Play va App Store’dan yuklab olish mumkin. Loyiha 2012 yilning yanvarida faoliyatini boshlagan. OAV sifatida 0987 raqami bilan davlat ro‘yxatidan o‘tgan. Loyiha muassisi «WEB EXPERT» MCHJ hisoblanadi. Sayt O‘zbekiston Respublikasi hududida faoliyat olib boruvchi davlat va jamoat tashkilotlari bilan qonunda belgilangan tartibda hamkorlik o‘rnatgan holda ish olib boradi. Uning xorijiy mamlakatlardagi so‘nggi muhim voqelikni taqdim etuvchi sahifalarida asl manbara ilovalar keltirilishi esa o‘quvchida ma’lumotning asli bilan tanishish imkoniyatini yaratadi.

Bugun sayt o‘zbek tilida kirill va lotin yozuvlarida hamda rus tilidagi varianti ham o‘quvchilarga havola etilgan. (4-rasmga qarang)



#### **4-rasm.**

Sayt dizayni standartlarga mos. Mediamatn sahifaning asosiy qismini tashkil etadi, deya olamiz. Matnning foto, video va grafika bilan uyg‘unligi va uning kontentga mosligi haqida keyingi fasldar misollar orqali kengroq to‘xtalamiz.

Internet jurnalistikada g‘arb mamlakatlarida faoliyat yuritayotgan onlayn nashrlar faoliyati keng o‘rganiladi. Zamonaviy terminlarni qo‘llash, fanga yangi yo‘nalishlarning kirib kelishida g‘arb olimlarining ishlari ahamiyatlidir. Qolaversa, ularning jurnalistik faoliyatida ham ayrim tajriba almashinuv uchun muhim jihatlar mavjud.

Ana shunday tahlilbop nashr Amerika qo‘shma shtatlarining “The New York Times” gazetasidir. “Nyu-York vaqt” ma’nosini anglatuvchi mazkur nashr 1851 yil 18 sentyabrdan boshlab Nyu-Yorkda chop etiladi. Mamlakatda adadiga ko‘ra “[The Wall Street Journal](#)” gazetasidan keyingi ikkinchi o‘rinda, dunyoda 39-o‘rinda

turuvchi mazkur nashr bugun aholining yetakchi axborot manbalaridan hisoblanadi. Ayni paytda [www.nytimes.com](http://www.nytimes.com) veb-sayti millionlab amerikalik va xorijliklar kuzatuvida hisoblanadi. Mutaxassislarning aniqlashlaricha, bir oyda sayt foydalanuvchilari soni 30 milliondan oshadi. Sayt auditoriyaga *All the News That's Fit to Print* (bizdagi barcha ma'lumotlar qog'ozga chiqarib olish uchun mos), deb alohida murojaatnomha ham beradi. Internet nashrda barcha sohalar bo'yicha sahifalar joy olgan bo'lib, u yaqin kunlarga qadar birinchi sahifasida rangli fotosuratlar beruvchi ma'lumotlar bazasi sifatida qaralar edi. (5-rasmga qarang).



### 5-rasm.

Ushbu axborot manbasi kuzatuvchilarga saytni ingliz tilidan tashqari xitoy va ispan tillarida ham kuzatish imkoninni beradi. (6-rasmga qarang).



### 6-rasm.

Hozirgi kunda “The New York Times” bosma nashrdagi ko‘rinishini saqlagan holda onlayn sahifalashtirilgani hamda yangiliklarni mediaviy ko‘rinishda alohida taqdim etilishi bilan boshqa gazetalardan farqlanadi. Bu xususda misollar asosida keyingi fasllarda bat afsil to‘xtalamiz.

Umuman olganda, bugun onlayn nashrlar kontenti, ya’ni mazmunini ifodalashda mediamatnlarning o‘rni katta. Aytish mumkinki, hozirda mamlakatimizda matbuotning bosma nashrlaridan tashqari erkin faoliyatdagi yangi axborot tizimlari auditoriyani ko‘proq jalb etmoqda. Sababi ular foydalanuvchi e’tiborini jalb qiladigan vositalardan unumli foydalanishmoqda. Bu borada matnning o‘qishli bo‘lishida unga nisbatan ma’lum talablar quyilishi tabiiy. Nashr saytiga ma’lumot tayyorlashda uning kontenti, ya’ni mazmuni tahririyat faoliyati yo‘nalishlaridan kelib chiqqan holda yaratilib, kompyuter monitoridan o‘qish bosma nashrga nisbatan biroz qiyin bo‘lgani bois matnning bir betlik hajmi ham belgilangan. Shuningdek, mediamatnlarni yaratishda yana axborotning dolzarbligi, sayt matni o‘zbek, rus va ingliz tillarida ishlanishi, uning har bir sahifasida tillardan bir-biriga o‘tish imkonini bo‘lishi, matn qisqaroq surat va video hamohangligida berilishi lozim. Mediamatnda matn qismidan tashqari fotosurat va video yohud grafikaga nisbatan ham talablar katta bo‘lgani sabab ulardan ham o‘rinli foydalanish kerak. Ana shularga e’tibor qaratish mediamatn kuzatuvchilari sonining oshishiga sabab bo‘ladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. [www.nytimes.com](http://www.nytimes.com)
2. [www.jamiyatgzt.uz](http://www.jamiyatgzt.uz),
3. [21asr.uz](http://21asr.uz),
4. [huquq-gazeta.uz](http://huquq-gazeta.uz)